

**“KONFLIKT VAZIYATLARNI HAL ETISHDA OILANING ROLI” MODULINI
O’QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

*Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Farg‘ona Davlat Universiteti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada konflikt vaziyatlarini hal etishda oilaning roli va pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oilaning ahamiyati zamonaviy metod va yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida uning funksiyalari va barqarorligini ta‘minlashdagi roli ko‘zdan kechiriladi. Konfliktlarni bartaraf etishda kommunikatsiya madaniyati, empatiya, psixologik yordam va ijodkorlik pedagogikasi kabi innovatsion usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik konfliktlarni hal etishda zamonaviy psixotrening va muloqot texnikalarining samaradorligi muhokama qilinadi. Maqola ilmiy manbalar asosida mustahkamlangan bo‘lib, oila psixologiyasi va pedagogikasida yuzaga keladigan dolzarb muammolarga yechimlar taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *Oila, konflikt, pedagogik konfliktlar, zamonaviy metodlar, kommunikatsiya madaniyati, empatiya, psixotrening, ijodkorlik pedagogikasi, jamiyat, ijtimoiy funksiya, konfliktlarni bartaraf etish, pedagogik yondashuvlar.*

Kirish

Oila nafaqat inson hayotining asosiy ijtimoiy instituti, balki jamiyatning barqarorligi va rivojlanishining poydevoridir. Ushbu maqolada konflikt vaziyatlarni hal etishda oilaning o‘rni, pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda zamonaviy metod va yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatlarda o‘zaro munosabatlar murakkablashgani sababli, konfliktlarni ilmiy asosda hal etish mexanizmlari ustida izlanishlar kengaymoqda. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan nizolar ota-ona, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofaqiyatli olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila jamiyatning ijtimoiy asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- *Reproduktiv funksiya:* avlodlarni davom ettirish va ularni tarbiyalash.
- *Tarbiyaviy funksiya:* shaxsning axloqiy, ma‘naviy va madaniy qadriyatlar bilan jihozlanishi.
- *Ijtimoiy funksiya:* a‘zolari jamiyatdagi ijtimoiy rollarga tayyorlash.
- *Psixologik qo‘llab-quvvatlash:* ruhiy barqarorlik va oilaviy muvozanatni ta‘minlash.

- *Konfliktlarni nazorat qilish va bartaraf etish:* oila ichida yuzaga keladigan nizolarni tahlil qilish va hal etish mexanizmlarini yaratish.³⁰

Asosiy qism.

Zamonaviy psixologik va pedagogik ilm-fan oila ichidagi konfliktlarni hal etish uchun bir qator innovatsion metod va yondashuvlarni taklif qiladi:

- *Kommunikatsiya madaniyati:* samarali muloqot qoidalari, faol tinglash va ochiq fikr almashinuvi konfliktlarni kamaytirishda asos hisoblanadi.

- *Empatiya va hissiy intellekt:* oila aʼzolarining bir-birini tushunishi va his-tuygʻularni anglash qobiliyatini oshirish mexanizmlari.

- *Psixotrening va oʻzaro maslahatlashuv:* konfliktlarni ziddiyatlarga aylanmasdan hal etish uchun psixologik mashgʻulotlar va treninglar.

- *Ijodkorlik pedagogikasi:* oʻquvchilar va ota-onalar oʻrtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ijodiy va erkin fikrlash muhim omil hisoblanadi.³¹

Bundan tashqari, konfliktologiya fanining strukturaviy, protsessual va permissiv yondashuvlari konfliktlarni mukammal tahlil etishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar nizolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, jarayonlarni oʻrganish va yechimlarni taklif qilishga yoʻnaltirilgan.³²

Pedagogik konfliktlar, asosan, oʻqituvchi, oʻquvchi va ota-ona orasidagi pedagogik munosabatlarda yuzaga keladi. Bu konfliktlarni hal etishda oila quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- *Maʼnaviy taʼlimni kuchaytirish:* oila tarbiyasi bolalarning ijtimoiy va shaxsiy qobiliyatlarini shakllantiradi, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga bardosh beradi.

- *Konfliktlarni erta aniqlash va oldini olish:* ota-onalar va oʻqituvchilar oʻrtasida samarali muloqotni tashkil qilish.

- *Psixologik yordam va maslahat berish:* pedagogik konfliktlarni hal etish uchun oilaviy maslahatlar va psixologik qoʻllab-quvvatlashning ahamiyati katta.

- *Zamonaviy taʼlimiy texnologiyalar,* jumladan psixotrening va mediatorlik usullarini qoʻllash orqali pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.³³

Shu sababli pedagogik jarayonda oila, nafaqat tarbiya beruvchi, balki psixologik barqarorlikni taʼminlovchi va konfliktlarni bartaraf etuvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

³⁰ N.Oripova, H.Rahmatova. "OILA PSIXOLOGIYASIDA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI". *Modern Education and Development*, vol. 30, no. 1, July 2025, pp. 390-3, <https://scientific-jl.com/mod/article/view/25341>.

³¹ F. M. Qoʻchqarova. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 216 b.

³² Maqsudov U.Q., Pedagogik konfliktologiya. Darslik.-Fargʻona.: FDU, 2025-y. - 216 b.

³³ Kubayeva, F. J. qizi . (2025). OILA PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA TA'LIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI. "CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH", 2(9), 14–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17545405>

Metodika. Shu kabi mavzulardagi talabalar bilan olib boriladigan dars mashg'ulotlarining ahamiyatli tomonlariga to'xtalib o'tamiz. Pedagogik kazuslar orqali talabalarning amaliy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi, ular real pedagogik muammolarni hal qilishda muhim ko'nikmalar hosil qiladilar. Bu metod o'quvchilarga nazariy bilimlarni real vaziyatlarga qo'llash imkonini berib, o'rganish jarayonini faollashtiradi va mustahkamlashtiradi. Shu bilan birga, kazuslar talabalarga pedagogik jarayonlarning murakkabligini tushunish, muammo yechish strategiyalarini ishlab chiqish va o'zaro muloqotni rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik kazuslar talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik muhitni yaxshilash, ijtimoiy-psixologik muammolarni aniqlash va muhokama qilish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qiladi. Bu metod pedagogik fanning nazariy va amaliy doiralari o'rtasidagi ko'priklarni bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, muammoni tanqidiy va yaratish bilan hal qilish, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Quyida tajrimizdan misol keltirib o'tamiz:

1. Pedagogik kazus: "O'tgan kunlar" asaridagi oilaviy ziddiyatning "4K metod"ida yechim.

"O'tgan kunlar" asarining bosh qahramoni Otabek Marg'ilon Kumushbibiga uylangach, Toshkentdagi holat:

O'zbek Oyim kelib kirganidan so'ng Yusufbek Hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi. O'zbek Oyim deysinib-deysinib eriga qarab olar edi. Anchagacha so'zsiz o'tirgandan so'ng hoji muloyimgina so'z ochdi:

- O'g'lim, hali sen eshitdingmi yo'qmi, haytovur saning ustingdan bir ish qilib qo'ydik.

Otabekka ma'lumki," qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq xam bo'lsa bilmaganga soldi:

- Aqilli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari albatta **номаъкул** bo'lmas.

- Biz saning uchun Olim ponsadboshning qizig'a unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilmoqchi edik...

Otabek onasiga bir og'iz so'z demay, manilik qilib otasiga qarab oldi. Hoji uyatlisiman "shundoq" deb qo'ydi.

- Sizlarni ranjitib bo'lsa ham bir marotaba uylangan edim-ku? Endi...

- Sen uylansang biz ranjirmidik?- dedi hoji.

- Ranjimaslaringiz...

- Hoji tuzuklanib o'tirib o'ltirib oldi..

- Bu ranjishdan emas, hojatdan o'g'lim.

- U nima hojat?

- Hasanalining soʻziga qaragʻanda, qayn otang qizini Toshkanga yubormas ekan. Oʻgʻil oʻstirib katta qilgʻan onangni boʻlsa oldigʻa kelin qaygʻusi keladur...

Otabek onasiga qaradi:

- Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib burdi-ku....dedi.

Oʻzbek oyim Margʻilonliq tomonidan sehrlangan oʻgʻliga qarshi qizishib ketdi: Bir yillardan berib ichiga yigʻib kelgan kinasini toʻkib berdi:

- Man sani umid bilan boqib katta qilmagʻan edim... San bizning naslimizni koʻtarish oʻrnigʻa, yerga urib bulgʻading. Biz seni Margʻilon andisiga bunchalik mukkadani ketishingni oʻylamagan edik, adabsiz... Oʻzingga qolsa shu Margʻilonliqni xotingʻa hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz...

Savol: Siz ushbu vaziyatni qanday baholaysiz. (135-bet.)

Muammo: Ushbu adabiy vaziyatda Otabekning ota-onasi bilan ziddiyati unda kritik fikrlash, kreativ muammo yechish, oilaviy munosabat va moʻljal (yechim) qobiliyatlarini sinab koʻrmoqda.

1. TAHLIL (Analysis) bosqichi

Gurh uchun vazifa: Vaziyatning turli tomonlarini ajratib tahlil qilish.

Tahlil: Ota-onaning psixologik bosimi: Oʻzbek Oyim "Man sani umid bilan boqib katta qilmagʻan edim..." deb gunohkorlik xissiyoti paydo qilyapti

Ijtimoiy normalar: Yusufbek Xoji "Biz saning uchun Olim ponsadboshning qizigʻa unashib qoʻydiq" deb jamiyatdagi maqom-martabani saqlashni ustun qoʻyadi

Shaxs ziddiyatlari: Otabek onasiga karashlarida "manilik qilib" koʻz bilan soʻzlashadi, bu orada noanik kommunikatsiya borligini koʻrsatadi

Reja va istiqbol: Otabek oʻz qarorini himoya qilish orqali shaxsiy istiqbolini namoyon qilyapti

2. SINTEZ (Synthesis) bosqichi

Gurh uchun vazifa: Vaziyatga mukammal yondashuvlar ishlab chiqish.

Taklif etilayotgan pedagogik yechimlar:

Kritik fikrlashni rivojlantirish: *Otabek uchun:* "Ota-onaning xavotirini tushunish bilan oʻz qarorini asoslash". *Ota-ona uchun:* "Oʻgʻilning shaxs sifatida oʻsganini kabul qilish"

Kreativ muammo yechish: *Hamkorlikdagi yechim:* "Ikki tarafning xam xohishlarini qondiradigan kompromiss topish"

Mediatsiya usuli: "Uchinchi taraf vositasida oʻzaro tushunish yaratish"

Effektiv kommunikatsiya: *Ochiq dialog:* "Xis-tuygʻularni boʻlisha oladigan xavfsiz muhit yaratish" *Faol tingish:* "Har bir tomonning pozitsiyasini chykamrok tyshynish"

Mo'ljil va ishonch: *Shaxsiy qadriyatlar: "O'z qarorlari uchun mas'uliyatni olish"*

Oilaviy bogliklik: *"Yangi sharoitda oilaviy munosabatlarni qayta kurish"*

3. XULOSA (Evaluation) bosqichi

Guruh uchun vazifa: *Taklif etilgan yechimlarni baholash va tavsiyalar berish.*

BAHOLASH VA TAVSIYALAR:

Yondashuv	Kuchli Tomoni	Sust Tomoni	Baho (5/5)
Kritik fikrlash	Shaxsni mustaqil fikrlashga o'rgatadi	Ota-ona bilan ziddiyatni kuchaytirishi mumkin	4
Kreativ yechim	Hamma tomon manfaatini hisobga oladi	Anik va tezkor natija bermasligi mumkin	5
Kommunikatsiya	Uzun muddatli yaxshi munosabatlar asoslaydi	Vaqt va sabr-toqat talab qiladi	4
G'ayrat	Shaxsiy kadriyatlarini mustahkamlaydi	Oilaviy bogliklikka ta'sir etishi mumkin	3

YAKUNIY PEDAGOGIK XULOSA:

1. *Muammoning mohiyati:* Bu faqat nikox mas'alasi emas, balki avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar ziddiyatidir.

2. *Ta'lim jarayonidagi o'rni:* Yoshlarda tanlash qobiliyatini shakllantirish;

Oilaviy munosabatlarda soglom kommunikatsiya o'rnatish;

Shaxsning ijtimoiy bosimga karshi turish qobiliyatini rivojlantirish.

3. *Pedagogik natija:* Tarbiya jarayonida o'quvchilarning shaxs sifatida hurmatini targ'ib qilish;

Ota-onalar bilan o'zaro tushunishni rivojlantirish;

Qiyin vaziyatlarda konstruktiv yondashuvlarni qo'llash.

4. *Ijobiy tomonlari:* Otabekning o'z hayoti haqida qaror qabul qilish huquqini himoya qilishi;

Ota-onaning farzand hayotiga bevosita aralashmaslik zarurligi;

Yangi avlodning o'z yo'lini topish haqi

Natijada, bu vaziyat orqali o'quvchilarda kritik fikrlash, kreativlik, hamkorlik va kommunikatsiya kobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ular hayotdagi qiyin qarorlarni qabul qilishda o'zlarining qadriyatlari va masa'uliyatlarini tushunishlariga yordam beradi.

Xulosa

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida konfliktlarni samarali hal etish va pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda markaziy o'rin tutadi. Zamonaviy metod va

yondashuvlar - kommunikatsiya madaniyati, empatiya, psixotrening, ijodkorlik pedagogikasi va konfliktologiyaning ilmlari — oilaning ushbu jarayonlardagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy asoslangan yondashuvlar yordamida oila aʼzolari oʻrtasidagi nizolarni konstruktiv hal etish va ijtimoiy muvozanatni taʼminlash mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan soʻng, oila va pedagogik konfliktlar boʻyicha mos nazariy yondashuvlar roʻyxati quyidagicha **tavsiya** qilmoqchimiz:

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv - oilaning ijtimoiy vazifalari va uning pedagogik jarayonlardagi oʻrni, oila va maktab oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirlarning tahlili.

Konfliktologik yondashuv - konfliktlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, konstruktiv va destruktiv konfliktlarni ajratish va bartaraf etish usullari.

Kommunikativ madaniyatli yondashuv - samarali muloqot, faol tinglash va ochiq fikr almashinuvi orqali konfliktlarni oldini olish.

Empatiya va hissiy intellekt yondashuvi - oilaviy aʼzolar oʻrtasida bir-birining fikri va his-tuygʻularini tushunish qobiliyatini oshirish.

Psixotrening yondashuvi - pedagogik va oilaviy konfliktlar yuzaga kelganda psixologik mashgʻulotlar va treninglar orqali muammolarni hal etish.

Kreativ pedagogik yondashuv - pedagogik konfliktlarni innovatsion va ijodiy usullar bilan yengish.

Tolerantlik va madaniyatlararo muloqot yondashuvi - ijtimoiy va madaniy farqlar asosida yuzaga keladigan konfliktlarni boshqarish.

Sistemali yondashuv - oila ichidagi aʼzolar oʻrtasidagi munosabatlarning ilgʻor tahlili va ularni bir butun sifatida koʻrib chiqish.

Psixologik barqarorlik yondashuvi - oila muhitidagi ruhiy salomatlik va barqarorlikni taʼminlash usullari.

Tarbiyaviy yondashuv - pedagogik faoliyat va tarbiya jarayonida oila va taʼlim muassasalari oʻrtasidagi bogʻliqlik.

Demak, ushbu yondashuvlar oila va pedagogik konfliktlarni tahlil qilishda ilmiy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi hamda ushbu muammo uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduhalilovna, R. B. (2022). Oilaviy nizolar va uni hal etish yoʻllari. Cyberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-nizolar-va-uni-hal-etish-yo-llari>
2. Halukha, L. (2025). Modern approaches to resolving intergenerational conflict in education. Revista Eduweb. <https://revistaeduweb.org/index.php/eduweb/article/view/704>

3. Joo, M. J. (2025). The relationship between family conflict resolution methods and mental health outcomes. PMC. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11870374/>
4. Umarova, S. R. Q. (2023). Hayotimizdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda hadislarning oʻrni. Cyberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/hayotimizdagi-pedagogik-konfliktlarni-bartaraf-etishda-hadislardan-foydalanish>
5. N.Oripova, H.Rahmatova. “OILA PSIXOLOGIYASIDA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI”. *Modern Education and Development*, vol. 30, no. 1, July 2025, pp. 390-3, <https://scientific-jl.com/mod/article/view/25341>.
6. Qoʻchqarova F.M. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 216 bet.
7. Kubayeva, F. J. qizi. (2025). OILA PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA TA'LIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI. "CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH", 2(9), 14–16.
8. Maqsudov U.Q., Pedagogik konfliktologiya. Darslik.-Fargʻona.: FDU, 2025-y. - 216 bet.
9. Maksudov, U. (2025). PEDAGOGICHESKIYE TENDENSII FORMIROVANIYA AKTIVNOSTI STUDENTOV V INNOVATSIONNIX I STARTAP-PROYEKTAH V USLOVIYAX MIROVOY TRANSFORMATSI/ Aktualniye problemi sotsialno-gumanitarnix nauk Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(5), 447-453.
10. Maksudov, U. K. (2025). Scientific Bases for Promoting Student-Youth Initiatives Based on A Gender Approach. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 5(05), 110-113.

Elektron resurslar:

1. Renessans-edu.uz. (n.d.). Pedagogik konfliktologiya. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-07-09-10-23_d3df56fffd32ebfab87e1c365bf5aab8b.pdf
2. Scientific-jl.com. (2023). Oila psixologiyasida konfliktlar va ularni bartaraf etish. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/25341>
3. Scientific-jl.com. (2023). Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilada-olib-boriladigan-ijtimoiy-pedagogik-faoliyat>
4. Universalpublishings.com. (n.d.). Oila pedagogikasining zamonaviy yondashuvlari. <https://universalpublishings.com/index.php/cnassir/article/view/14178>
5. Zenodo.org. (n.d.). Kreativ yondashuv asosida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. <https://zenodo.org/records/10679974/files/3.43.pdf>

6. Oefen.uz. (2023). Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

<https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilada-olib-boriladigan-ijtimoiy-pedagogik-faoliyat>